

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

### **IS’HOQXON IBRAT SHE’RLARIDA EL-YURT DARDI TALQINI**

**Eshmurodova Roziya Siddiq qizi,**  
*Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zga tilli  
guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi  
2-kurs talabasi*

*Annotatsiya* Ushbu maqolada, Jadidchi Is’hoqxon Ibrat haqida ma’lumot va uning hayot yo‘li, she’rlaridagi millat ruhi, xalq dardi bayon etilgan satrlar tahlil qilingan.

*Kalitso‘zlar:* Is’hoqxon Ibrat, Haj safari, tarixshunos, tarjimon, jadidchi, yozuvchi.

**Аннотация.** В данной статье анализируются сведения о Джадидчи Исхакхане Ибрате и его жизненном пути, строки в его стихах, описывающие дух нации и боль народа.

**Ключевые слова:** Исхак Хан Ибрат, хадж, историк, переводчик, боец, писатель.

*Soyut.* Bu makalede Cedadıçı İshakkhan İbrat ve onun hayat yolu hakkında bilgiler, şiirlerinde milletin ruhunu anlatan misralar ve halkın acıları tahlil edilmektedir.

*Anahtar kelimeler:* İshak Han İbrat, Hac, tarihçi, çevirmen, savaşçı, yazar.

Is’hoqxon Ibrat (haqiqiy ismi To‘ra Junaydullo xo‘ja o‘g‘li) - jadidchi, yozuvchi, tarjimon, tarixshunos bo‘lgan. U 1862-yilda Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Is’hoqxon Ibrat Qo‘qonda o‘qib yurgan vaqtlarida rus maktablaridagi o‘qitish tizimi bilan tanishadi va hijo metodiga asoslanib o‘rgatilayotgan maktablarda ancha ustun ekanligini sezadi. Is’hoqxon Ibrat yangi usulda o‘z mifikabini ochgach o‘quvchilarining savodi tezlashadi va buni payqagan eski boshqa madrasadagilar uning ustidan shikoyat xatlarini yozib, maktabni yoptiradi. 1887-yil onasining “Haj safariga chiqish” orzusini amalga oshirish uchun Makka tomon yo‘l oladi. Haj ziyoratini bitirib biroz vaqt Jiddada, so‘ng Ovrupa, Osiyo mamlakatlarida sayohat qiladi. Istanbulgacha yetib borib, Is’hoqxon Ibrat Ovrupa bo‘ylab sayohatini davom ettiradi. O‘z sayohatlari davomida yunon, turk, arab, fors, hind va urdu tillarini, keyinroq, rus tilini ham o‘rganadi. Bu haqida zamondoshi Ibrohim Davron shunday yozadi: “Fazoili insoniyadinmoada qozi to‘rajanoblari turkcha, forscha, hindcha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armancha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar”.<sup>1</sup>

1896-yil yigirma yillik safardan so‘ng ona qishlog‘iga qaytadi va o‘z uyida maktab ochib, o‘ttizga yaqin bolalarni o‘qitadi. O‘qish uchun mablag‘i bo‘lmagan bolalarni o‘z hisobidan o‘qitib el duosini oladi. Is’hoqxon Ibratning ma’rifatparvar, ilmga chanqoq insonligi bu yerda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning o‘sha davrda eng katta qilgan yangiligi “Lug‘atisitta-alsina” nomli olti tilli lug‘at yaratadi. Bu

<sup>1</sup>Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizaev SH., Ahmedov S. Milliyug‘ onishdavri adabiyoti.-Toshkent,-2004.-169b

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

kitobarab, fors, rus, hind, turk, o‘zbek tillaridan tashkil topgan va jadidchilik maktablarida o‘quv qo‘llanmasi o‘rnida foydalanilgan. Undan so‘ng jahon yozuvlariga bag‘ishlangan "Jome’ul-hutut", ilmiy-tarixiy, lingvistik yo‘nalishda 14 ta asar, tarixshunoslikka oid "Tarixi Farg‘ona, Tarixi madaniyat, Mezonuz-zamon", "Devonilbrat" she’riy to‘plami, "Tarixi chopxona", "Madaniyat haqida masnaviy", "Gazetaxususida", "Qalam" kabi she’rlari bor. 1937-yil aprel oylarida 75 yoshida Andijon turmasida qatag‘on qilinadi.

Ibrat Is’hoqxon vatanparvar, millatining kelajagini o‘ylovchi, zukko shaxs bo‘lgan. Uning eng katta maqsadi xalq taffakurini yuksaltirish bo‘lgan. Bu borada o‘z vaqtini, pulini, jonini ayamagan o‘z davrining buyuk yozuvchisidir. Xalqning chekkan zahmatlarini, qiyinchiliklarini va o‘sha davrdagi yo‘qchiliklarni “Qalaysizlar” she’rida payqash mumkin.

*Tiriklik zahmatidin ushbu kunlardan qalaysizlar?  
Bu qimmatlik yili bug‘doy-u unlardan qalaysizlar?*

*Hamani qo‘ymadi o‘z holig‘a, tashvishlar soldi,  
Mushavvash tartibsizlik aylagan bu ahli dunlardan qalaysizlar?*

Ijodkor satr boshlanishida xalq tirikchiligi haqida so‘rashi bejiz emas. Bu fikrni ikkinchi satr to‘ldirib qimmatchilik davrining boshlanganini, bug‘doy, unlarning narxi ko‘tarilgani haqida xabar beryabdi. Bu yerda nega aynan bug‘doy va un, chunki bular xalqning asosiy yeydigan taomidir. Qimmatchilik boshlanib Xalq bug‘doy va undan ham mosuvo bo‘lganda xalq qanchalik qiyanganini, ezilganini tasvirlayabdi. Keyingi satrlarda esa xalqni ezuvchilarni ahli dun ya’ni amaldorlar, saroy lavozim egalarining xalqni o‘z holiga qo‘ymaganligi, boshiga har xil tashvishlar solgani haqida keltirilgan. Bu haqida keyingi baytlarda kengroq yoritiladi.

*Bosib xalqi jahonni ayladi torojo‘g‘rilalar,  
Salom atyotdigizmu, bo‘ylatunlardan qalaysizlar?*

*Fasodu olam etti shu kabi har yerda insonni,  
Bu tarzda fitnayu torojbunlardan qalaysizlar?*

*Ki har bir kimsa damping xilalomoti qiyomatlar,  
Mashaqqat vaqtini umri o‘rinlardan qalaysizlar?*

Baytda tun so‘zining qo‘llanish sababi, xalqni talon-taroj qilib, kechqurun uylarga bostirib kirib aybsiz aybdorlarni qamab qatl ettirgan. Nonini zo‘rg‘a topib yegan xalq farzandlarini o‘qishga yubormay qo‘ygan vaqtida Ibrat ularni bepul o‘qitadi. Kelajak yaxshi bo‘lishi uchun farzandlarning bilim olishini targ‘ib qilgan. Bu davrdagi insonlarning chekkan azoblarini “bitta odamda qiyomatning ming xil

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

alomati bor”deya ta’riflagan shoir boshqa she’rlarida insonlarning ilmsizligiyu, johilligini qoralagan.

G‘azallarida xalq dardini kuylovchi shoir “O‘lursan” g‘azalida insonlarning ishonuvchanligi, fikr doirasi tor ekanligi, bilimsizligi natijasida bir-birining aybini oshkor qilish, tuhmat qilish, qilmagan ishlarni qildi deya xato o‘ylashlarini ochiq bayon qiladi.

*Bo ‘lma amalga muxtor ozurda jon o ‘lursan,  
Bad fikr fitnasidin dil o ‘tla qon o ‘lursan.*

*Gar to ‘g ‘ri so ‘z qilursan, ul fahm egri aylar,  
Anga tushuntururga dardi daho no ‘lursan.*

Bu baytlarida shoir va’da qilingan amalga uchib nima ish bo‘lsa qilib ketavermaslikni, yomonlarning fitnalariga qo‘silib, yomon yo‘lga kirib, oxirida pushaymon bo‘lishi haqida va aksariyat holatlarda bu insonlar xo‘rak vazifasini o‘taganligi uchun ularga nasihat berib o‘tgan. Insonlarga taraqqiyotni, ilmni rivojlantirish kerakligini aytgan Ibratning ustidan ham bu kabi omi insonlar shohga arizalar yozadi va natijada, yangi usulda qurilgan maktab yopiladi. Insonlarga tushuntirguncha ancha zahmat chekkan shoir o‘z azoblarini, gap-so‘zlarini g‘azallarida, asarlarida ifodalab bergen.

Omi amaldorlar, hech narsaga tushunmay ilmli insonlarning ustidan tushgan shikoyatnomalarga qarab qatag‘on qilavergan. Surishtirib, izlanib ko‘rmay jazolash bunaqa darajada qabohatliish. Baytda keltirilganidek advokatlar, amaldorlar ko‘p ammo baribir ilimsiz, omi odamlar ekanligi, “ko‘fiyadin” ya’ni “mukofot”dan boshqa narsani bilmagan amaldorlarga tushuntirguncha “fig‘on”- “azob” chekib o‘lasan, nimaiki ish qilma hech qachon “qut”-“baraka”si bo‘lmaydi deya xalq dardini kuylagan shoir bayt oxirini “kasbsiz o‘tma aksholda nonga zor bo‘lib o‘lasan” deya nasihat bilan tugallaydi.

Bu kabi she’rlari juda ham ko‘p. Jumladan, “Tarixichopxona”, ”Madaniyat haqida masnaviy”, “Gazetaxususida”, “Turkiston ahlig‘a xitob”, “Tabrik Namangondin”, “Qalam” kabi she’rlarida mamlakatni asliy qoloqlikka sudrovchi amaldorlarning aybini fosh etadi. Xalqni qashoqqlik, nodonlikda qolganligi sababini aniqlashga va ulaning ko‘zini ochishga, bu yo‘ldan qaytarish uchun ilm-ma’rifatni targ‘ib qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, Ishoqxon bratni mukammal, iqtidorli jadid bo‘lgan deya olamiz. Xalqi uchun yonib-kuygan bu shoir Namangan shahrini gullab-yashnashiga katta hissasini qo‘shegan. Ilm tariqasida ham, madaniyat borasida ham avlodlar uchun juda katta meros tashlab ketgan. Yozgan asarlarida ham kattama’no, ilmga da’vat qiluvchi purma’no so‘zlar kelajak avlodlarga katta dars bo‘la oladi.

**“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI  
TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizaev, Sunnat Ahmedov "Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti", Tosh-2004
2. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizaev SH., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri adabiyoti.-Toshkent,-2004
3. <https://ziyouz.uz>
4. <https://ilmlar.uz>
5. <https://arboblar.uz>